

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUN, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 11-son (iyun, 2026-yil).- 73 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-iyun

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Mamataliev Ikrom, Shadmanov Djamaliddin, Hakimova Iroda
TURLI AGROTEKNIK OMILLARNING G'O'ZA NAVLARIDA BIR KO'SAKDAGI PAXTA VAZNIGA
TA'SIRI 5-9

Raxmonqulova Lola, Umurzakov Elmurod
SHAFTOLI BITINING LOVIYANI O'SISHI RIVOJLANISHI VA MAXSULDORLIGIGA
TA'SIRI..... 10-13

Norov Ilxom, Amanova Maxfurat
KUNJUT(SESAMUM INDICUM.L) NAV VA NAMUNALARINING DON HOSILDORLIK
KO'RSATKICHIGA 1000 DONA DON VAZNINI TA'SIRI 14-17

FILOLOGIYA FANLARI

Isanova Feruza
O'ZBEK VA INGLIZ HUQUQIY MATNLARIDA SEMANTIK MUVOFIQLIK: QIYOSIY
TAHLIL 18-21

Yo'ldoshova Jamila, Xidirova Munajat
QASHQADARYO VOHASIDA UCHRAYDIGAN VESPULA (THOMSON, 1869) AVLODI
TURLARINING MORFOLOGIYASI 22-26

Mustofakulova Maftuna
ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA KONNOTATIV MA'NONING TADQIQI 27-31

Mahkamova Sevinch
RAQAMLI MUHITDA MUALLIFLIK HUQUQI BUZILISHINING ASOSIY SHAKLLARI VA ULARNING
MEDIA MAKONDAGI NAMOYON BO'LISHI 32-34

Рустамова Тамилла
СТРУКТУРНЫЕ И ОРИЕНТАЦИОННЫЕ МЕТАФОРЫ В РЕПРЕЗЕНТАЦИИ НЕГАТИВНЫХ
ЭМОЦИЙ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ 35-38

Балясникова Марина
ОТ ПРИЗНАКА К СИМВОЛУ: ФУНКЦИОНАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ
АНГЛИЙСКИХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ С СУФФИКСОМ -LY 39-42

YURIDIK FANLAR

Eraliyeva Malika
GERMANIYA VA O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINING RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL..... 43-46

PEDAGOGIKA FANLARI

Gulamov Shavkat
FALSAFIY DEBATLAR ORQALI IJTIMOYIY MUAMMOLARNI TAHLIL QILISH 47-52

Mustafoyeva Noila
METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING LEGAL WRITING COMPETENCE IN
LEGAL EDUCATION 53-57

Darmonova Adolat
BARQAROR TA'LIM MODELLARI ASOSIDA UMUMIY PEDAGOGIKANI RAQAMLI
INTEGRATSIYADA O'QITISHNING ADAPTIV TEXNOLOGIYALARINI
TAKOMILLASHTIRISH 58-60

Sariboyeva Shaxnoza

IJTIMOIY TARMOQLARNING YOSHLAR AXLOQIY DUNYOQARASHIGA TA'SIRI.....61-66

PSIXOLOGIYA FANLARI

Xalikova Guli

O'YIN VA INTERFAOL METODLAR ORQALI TIL O'RGANISH: PSIXOLOGIK VA TEXNOLOGIK
YONDASHUV67-72

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

TURLI AGROTEKNIK OMILLARNING G'O'ZA NAVLARIDA BIR KO'SAKDAGI PAXTA VAZNIGA TA'SIRI

Mamataliev Ikrom Choriyevich

Paxta seleksiyasi, urug'chiligi yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti, kichik ilmiy xodim

ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-8022-5428>

Shadmanov Djamaliddin Kazakdjanovich

Paxta seleksiyasi, urug'chiligi yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-3163-4538>

Hakimova Iroda Xurram qizi

Paxta seleksiyasi, urug'chiligi yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti, kichik ilmiy xodim

Annotatsiya. Maqolada o'rtacha sho'rlangan o'tloqlashib borayotgan och tusli bo'z tuproqlar sharoitida sug'orish oldi tuproq namligi, ma'dan o'g'itlar me'yori va ko'chat qalinligining Sulton va S-6524 g'o'za navlarida bir ko'sakdagi paxta vazniga ta'siri.

Kalit so'zlar. g'o'za, ko'sak vazni, sug'orish rejimi, ma'dan o'g'itlar, ko'chat qalinligi, hosildorlik.

INFLUENCE OF VARIOUS AGROTECHNICAL FACTORS ON THE WEIGHT OF COTTON IN ONE BAG IN COTTON VARIETIES

Mamataliyev Ikrom Choriyevich

Scientific Research Institute of Cotton Breeding, Seed Production Agrotechnologies, Junior Researcher

Shadmanov Djamaliddin Kazakdjanovich

Scientific Research Institute of Cotton Breeding, Seed Production Agrotechnologies, Specialist in Agricultural Sciences, Senior Researcher

Hakimova Iroda Khurram kizi

Scientific Research Institute of Cotton Breeding, Seed Production Agrotechnologies, Junior Researcher

Annotation. The article examines the effects of pre-irrigation soil moisture, mineral fertilizer rates, and plant density on the seed cotton weight per boll of Sultan and C-6524 cotton varieties under moderately saline light gray soils undergoing meadowization.

Keywords: cotton, boll weight, irrigation regime, mineral fertilizers, plant density, yield.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i11/n01>

Kirish. Paxtachilikda yuqori va sifatli hosil yetishtirishda hosil elementlarining shakllanishi muhim ahamiyatga ega. Bir ko'sakdagi paxta vazni g'o'zaning mahsuldorlik darajasini

belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, uning o'zgarishi tashqi muhit omillari va agrotexnik tadbirlarga bevosita bog'liqdir. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, tuproq namligining maqbul darajada saqlanishi fotosintez mahsulotlarining generativ organlarga ko'proq yo'nalishiga xizmat qiladi va ko'saklarda quruq modda to'planishini kuchaytiradi [1, 4]. Shuningdek, mineral oziqlantirish darajasi ham g'o'zaning o'sishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib, azot, fosfor va kaliy elementlarining mutanosib qo'llanilishi ko'saklar soni va vaznining ortishiga olib keladi [2, 4].

Qator tadqiqotlarda ko'chat qalinligi g'o'za mahsuldorligiga ta'sir qiluvchi muhim agrotexnik omil sifatida baholangan. O'simliklar soni ortishi bilan ular o'rtasida yorug'lik, suv va ozuqa moddalari uchun raqobat kuchayadi, natijada ayrim mahsuldorlik ko'rsatkichlari pasayishi mumkin [3]. Shu munosabat bilan o'rtacha sho'rlangan tuproqlar sharoitida istiqbolli Sulton va S-6524 navlarida turli suv-o'g'it rejimlari hamda ko'chat qalinligining bir ko'sakdagi paxta vazniga ta'sirini baholash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot uslubiyati. Tajribalar 2015–2017 yillarda Sirdaryo viloyatining o'rtacha sho'rlangan o'tloqlashib borayotgan och tusli bo'z tuproqlari sharoitida o'tkazildi. Tajribada Sulton va S-6524 g'o'za navlari o'rganildi. Sug'orish oldi tuproq namligi ChDNSga nisbatan 70–70–65% va 75–75–65% darajalarda saqlandi. Ma'dan o'g'itlar me'yorlari N₁₈₀P₁₂₆K₉₀ va N₂₂₀P₁₅₄K₁₁₀ kg/ga qilib belgilandi. Ko'chat qalinligi 80–90 va 100–110 ming tup/ga variantlarda o'rganildi.

Har bir variantda belgilangan o'simliklarda terim oldidan ochilgan ko'saklardan namunalar olinib, bir ko'sakdagi paxta vazni aniqlandi.

Natijalar va muhokama. Olib borilgan tadqiqotlar natijalari bir ko'sakdagi paxta vazni sug'orish rejimi, ma'dan o'g'itlar me'yori va ko'chat qalinligiga bog'liq holda o'zgarishini ko'rsatdi. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilganidek, suv bilan yaxshi ta'minlangan o'simliklarda generativ organlarning shakllanishi va rivojlanishi jadal kechadi [1]. Bu holat bizning tadqiqotlarimizda ham o'z tasdig'ini topdi.

Jumladan, sug'orish oldi tuproq namligi ChDNSga nisbatan 70–70–65% bo'lganda Sulton navida bir ko'sakdagi paxta vazni o'rtacha 5,0–5,5 g, S-6524 navida esa 4,9–5,4 g oralig'ida o'zgardi. Namlik darajasi 75–75–65% gacha oshirilganda mazkur ko'rsatkich Sulton navida 5,3–5,7 g, S-6524 navida 5,1–5,5 g ni tashkil qildi. Bu esa yuqori namlik rejimida ko'sak vaznining 0,2–0,3 g ga ortishini ko'rsatdi.

Ma'dan o'g'itlar me'yorining ta'siri ham sezilarli bo'ldi. O'g'it me'yori N₁₈₀P₁₂₆K₉₀ kg/ga dan N₂₂₀P₁₅₄K₁₁₀kg/ga gacha oshirilganda har ikki navda ham bir ko'sakdagi paxta vazni 0,1–0,2 g ga ko'paydi. Bu holat mineral oziqlantirishning hosil elementlari shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi haqidagi ma'lumotlar [2,4] bilan mos keladi.

Ko'chat qalinligining ortishi esa aksincha ta'sir qildi. 80–90 ming tup/ga qalinlikda olingan natijalar 100–110 ming tup/ga variantlariga nisbatan yuqori bo'ldi. Masalan, Sulton navida ko'chat qalinligi oshirilganda bir ko'sakdagi paxta vazni o'rtacha 0,2 g ga kamaydi. Xuddi shunday holat S-6524 navida ham kuzatildi. Bu holat o'simliklar o'rtasida ozuqa va namlik uchun raqobatning kuchayishi bilan izohlanadi [3].

Navlar kesimida tahlil qilinganda Sulton navi barcha variantlarda S-6524 naviga nisbatan ustunlik qildi. Sug'orish oldi tuproq namligi 75–75–65%, o'g'it me'yori N₂₂₀P₁₅₄K₁₁₀ kg/ga va ko'chat qalinligi 80–90 ming tup/ga bo'lgan variantda Sulton navida bir ko'sakdagi paxta vazni 5,7 g ni tashkil etdi. Shu sharoitda S-6524 navida mazkur ko'rsatkich 5,5 g bo'ldi.

Shunday qilib, olingan natijalar g'ozada bir ko'sakdagi paxta vazni suv-o'g'it rejimi va ko'chat qalinligi bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Bu esa boshqa tadqiqotchilar tomonidan olingan ma'lumotlar bilan ham uyg'unlik kasb etadi [1-4].

1-jadval

O'rta tolali g'oz navlarining bir dona ko'sakdan chiqqan paxta vazniga suv-o'g'it me'yorlarining hamda ko'chat qalinligini ta'siri, g (terimlar bo'yicha)

| V-ant | G'oz navlari | Sug'orish oldi tuproq namligi ChDNS ga nisbatan, % hisobida | Ko'chat qalinligi (ming/ga) | Ma'dan o'g'itlar me'yor, kg/ga | | | 2015 yil | | | 2016 yil | | | 2017 yil | | | uch yillik o'rtacha | | |
|-------|--------------|---|-----------------------------|--------------------------------|-----|-----|-----------------------------|-----|-------|----------|-----|------|----------|-----|------|---------------------|-----|------|
| | | | | | | | Terimlar soni va o'rtachasi | | | | | | | | | | | |
| | | | | N | R | K | I | II | o'rt. | I | II | o'rt | I | II | o'rt | I | II | o'rt |
| 1 | An-bayavut-2 | (Nazorat) | 80-100 | 200 | 140 | 100 | 5,3 | 4,7 | 5,0 | 5,5 | 5,4 | 5,4 | 5,5 | 5,2 | 5,3 | 5,4 | 5,1 | 5,3 |
| 2 | Sulton | 70-70-65 | 80-90 | 180 | 126 | 90 | 5,3 | 4,8 | 5,0 | 5,5 | 5,4 | 5,5 | 5,4 | 5,1 | 5,2 | 5,4 | 5,1 | 5,2 |
| 3 | | | 100-110 | | | | 5,0 | 4,3 | 4,6 | 5,3 | 5,3 | 5,3 | 5,1 | 4,8 | 5,0 | 5,1 | 4,8 | 5,0 |
| 4 | | | 80-90 | 220 | 154 | 110 | 5,4 | 5,4 | 5,4 | 5,7 | 5,5 | 5,6 | 5,6 | 5,4 | 5,5 | 5,6 | 5,4 | 5,5 |
| 5 | | | 100-110 | | | | 5,4 | 4,9 | 5,1 | 5,5 | 5,4 | 5,4 | 5,4 | 5,1 | 5,3 | 5,4 | 5,1 | 5,3 |
| 6 | S-6524 | | 80-90 | 180 | 126 | 90 | 5,3 | 4,6 | 4,9 | 5,4 | 5,3 | 5,3 | 5,3 | 4,9 | 5,1 | 5,3 | 4,9 | 5,1 |
| 7 | | | 100-110 | | | | 5,0 | 4,3 | 4,7 | 5,3 | 5,1 | 5,2 | 5,1 | 4,7 | 4,9 | 5,1 | 4,7 | 4,9 |
| 8 | | | 80-90 | 220 | 154 | 110 | 5,6 | 5,3 | 5,4 | 5,5 | 5,4 | 5,4 | 5,5 | 5,3 | 5,4 | 5,5 | 5,3 | 5,4 |
| 9 | | | 100-110 | | | | 5,4 | 5,0 | 5,2 | 5,4 | 5,2 | 5,3 | 5,4 | 5,1 | 5,2 | 5,4 | 5,1 | 5,2 |
| 10 | Sulton | 80-90 | 180 | 126 | 90 | 5,5 | 5,3 | 5,4 | 5,6 | 5,5 | 5,6 | 5,6 | 5,4 | 5,5 | 5,6 | 5,4 | 5,5 | |
| 11 | | 100-110 | | | | 5,4 | 4,9 | 5,1 | 5,5 | 5,3 | 5,4 | 5,4 | 5,1 | 5,3 | 5,4 | 5,1 | 5,3 | |
| 12 | | 80-90 | 220 | 154 | 110 | 5,8 | 5,5 | 5,6 | 5,8 | 5,8 | 5,8 | 5,8 | 5,6 | 5,7 | 5,8 | 5,6 | 5,7 | |
| 13 | | 100-110 | | | | 5,5 | 5,1 | 5,3 | 5,7 | 5,6 | 5,7 | 5,6 | 5,4 | 5,5 | 5,6 | 5,4 | 5,5 | |
| 14 | S-6524 | 80-90 | 180 | 126 | 90 | 5,4 | 5,0 | 5,2 | 5,6 | 5,4 | 5,5 | 5,5 | 5,2 | 5,3 | 5,5 | 5,2 | 5,3 | |
| 15 | | 100-110 | | | | 5,2 | 4,8 | 5,0 | 5,4 | 5,2 | 5,3 | 5,3 | 5,0 | 5,1 | 5,3 | 5,0 | 5,1 | |
| 16 | | 80-90 | 220 | 154 | 110 | 5,6 | 5,3 | 5,4 | 5,7 | 5,5 | 5,6 | 5,6 | 5,4 | 5,5 | 5,6 | 5,4 | 5,5 | |
| 17 | | 100-110 | | | | 5,4 | 5,1 | 5,2 | 5,5 | 5,3 | 5,4 | 5,4 | 5,2 | 5,3 | 5,4 | 5,2 | 5,3 | |

Xulosa.

Tadqiqotlar natijasida sug'orish oldi tuproq namligini ChDNSga nisbatan 75–75–65% darajada saqlash bir ko'sakdagi paxta vaznini 0,2–0,3 g ga oshirishi aniqlandi. Ma'dan o'g'itlar me'yorini N₂₂₀P₁₅₄K₁₁₀kg/ga gacha oshirish natijasida ko'sak vazni 0,1–0,2 g ga ko'paydi. Ko'chat qalinligining 100–110 ming tup/ga gacha oshirilishi esa bir ko'sakdagi paxta vaznini o'rtacha 0,2 g ga kamaytirdi. Sulton navi barcha variantlarda S-6524 naviga nisbatan yuqori natija ko'rsatib, eng yuqori ko'rsatkich 5,7 g ni tashkil qildi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abduraxmonov A.A. Paxtachilik asoslari. – Toshkent: Mehnat, 2018.
2. Mirzayev S.M. G'o'za agrotexnologiyasi va hosildorlik omillari. – Toshkent: Fan, 2020.
3. Bednarz C.W., Bridges D.C., Brown S.M. Analysis of Cotton Yield Components in Modern Cotton Cultivars // Agronomy Journal. – 2000. – Vol. 92. – P. 985–989.
4. Marschner P. Mineral Nutrition of Higher Plants. – Academic Press, 2012.
5. O'zbekiston paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti. G'o'za yetishtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar. – Toshkent, 2019.
6. Qodirov A., Hamroyev F. Sug'orish tartiblarining g'o'za mahsuldorligiga ta'siri // O'zbekiston agrar fani xabarnomasi. – 2021. – №3. – B. 45–49.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2026-yil, iyun

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 11-son (iyun, 2026-yil). – 73 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-iyun.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.